

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA LIDERLIK KOMPETENSIYALARINING YANGILANISHI

Tursunboyeva Jamila Erkinovna
*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,
MBA Liderlik (Leadership) OL-1uz-25S-e gurux
magistr tinglovchisi,*

Annotatsiya: Maqolada raqamli transformatsiya davrida liderlik kompetensiyalarining o‘zgarishi va ularning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda ahamiyati tahlil qilingan. Liderlik raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi, zamonaviy texnologiyalar va global raqobat muhitida strategik qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, maqola raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik fikrlash, innovatsiyalarni boshqarish va ish joyida samaradorlikni oshirish kabi kompetensiyalarini yangilash muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, liderlik kompetensiyalari, strategik boshqaruv, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: The article analyzes the transformation of leadership competencies in the era of digital transformation and their significance in economic and social processes. Leadership plays a key role in strategic decision-making in digital economy infrastructure, modern technologies, and global competitive environments. The study highlights the importance of updating leaders’ competencies in strategic thinking, innovation management, and workplace efficiency under digital transformation conditions.

Keywords: digital transformation, leadership competencies, strategic management, innovation, digital economy.

Kirish (Introduction)

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitlarida iqtisodiyot tarmoqlarining barchasiga raqamli texnologiyalarni jalb qilish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Raqamli texnologiyalar millionlab odamlarni inqiroz sharoitidan saqlab qoldi. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning, ko‘p o‘lchovli va xilma-xil ko‘rinishlariga ega bo‘lgan eng keng muhokama qilinadigan jihatlaridan biridir. Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarni chuqur kirib borishga, ya’ni raqamli axborotni yig‘ish, qayta ishlash va uzatish uchun apparat va dasturiy ta’minotdan foydalanishga asoslangan.

O‘zbekistonda so‘ngi yillarda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar doirasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o‘zaro foydagi hamkorligining zamonaviy shakillarini, “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan[1]. Mazkur vazifalar tanlangan dissertatsiya mavzusi doirasida tadqiqotlarni amalga oshirishda maqsadli yo‘nalishlarni belgilab berishga xizmat qiladi. Shuningdek, iqtisodiyotning barcha soxalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan “raqamli iqtisodiyot” milliy konsepsiyasini ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yalpi ichki maxsulot hajmini qo‘shimcha o‘stirish bilan bog‘liq tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi[2].

Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli iqtisodiy rivojlanish masalalariga xorijiy tadqiqotchilar tomonidan katta e‘tibor berilgan, jumladan: N.Negraponte, T.Mesenbourg, M.Kostells, B. Panshin, A.Kunsman, M.Polojixina, M. Kalujskiy, S.Plugotorenko, X.R. Varian, M. Bliks, L.V.Lapidus A.V.Chernoalov va boshqalar[3] tomonidan tadqiq qilingan.

O‘zbekiston iqtisodiyotida axborot texnologiyalaridan foydalanish, raqamli iqtisodiyotni joriy etishning dolzarb masalalari va ijtimoiy-iqtisodiyotga ta‘sirini o‘lchash bilan bog‘liq tadqiqotlar S.S.Gulyamov, B.Yu.Xodiev, R.H.Ayupov, G.R.Boltaboeva, O.Umarov va mamlakatimizning boshqa ko‘plab yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan[4].

METHODS: Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi: Analitik metod – xalqaro va mahalliy adabiyotlar, ilmiy maqolalar va statistik ma‘lumotlar tahlili. Solishtirma tahlil – turli mamlakatlar va kompaniyalarda raqamli transformatsiya jarayonidagi liderlik kompetensiyalari solishtirildi. Empirik metod – so‘rovnomalar va ekspert intervyular orqali rahbarlarning yangi kompetensiyalarini aniqlash. Strategik tahlil – tashkilotlar va davlat sektorida raqamli transformatsiya jarayonida rahbarlikning samaradorligini baholash.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki: Raqamli transformatsiya jarayonida rahbarlar raqamli texnologiyalarni tushunish, innovatsiyalarni joriy etish va malakali kadrlarni boshqarish kabi yangi kompetensiyalarni egallashlari zarur. Eng muvaffaqiyatli kompaniyalar rahbarlari strategik qarorlarni ma‘lumotlar tahliliga asoslab qabul qiladigan, texnologik yangiliklarni tezkor joriy etadigan rahbarlar ekanligi aniqlangan. Raqamli

iqtisodiyotda kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish liderning samaradorligini oshiradi. So'rovnomalar natijasida rahbarlarning 78% raqamli transformatsiya sharoitida yetarli kompetensiyaga ega emasligi aniqlangan, bu esa trening va malaka oshirish dasturlarining zarurligini ko'rsatadi.

Muxokama (Discussion)

Hozirgi zamonda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirimoqda. Shuning uchun ham uni qanday rivojlantirish masalalari jamiyat va halq oldida ko'ndalang bo'lib turibdi. Avvalo shuni aytish kerakki, raqamli iqtisodiyot o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining zanjiridan iborat bo'lib, uning ajralmas elementi zanjirlararo (insonlararo, mashinalararo, bulutlar orqali, data markazlararo) raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan ma'lumot almashinishdir. Raqamli iqtisodiyotda raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi ishlab chiqarishning asosiy elementi hisoblanadi va bunday iqtisodiyot tizimiga bosqichma-bosqich o'tish mamlakatimizning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirib, fuqarolarning hayot sifatini yanada oshiradi, yangi ish joylarini yaratadi, jadal iqtisodiy o'sishga imkon yaratadi va milliy mustaqillikni ham ta'minlab beradi.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot quyidagilarga erishishga imkon beradi:

- raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish, shu jumladan, tarmoqlar, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, texnik va dasturiy ta'minotning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishiga imkon beradi;

- ta'lim tizimini har tomonlama rivojlanishini va yangilanishini ta'minlaydi;

- mamlakatdagi turli-tuman kompaniyalarning, firmalarning, davlat korxonalarining hamda biznesning rivojlanishiga puxta asos yaratadi;

- raqamli iqtisodiyot sohasida faoliyat ko'rsatadigan ko'plab tashkilotlar hosil bo'lishiga olib keladi.

Ushbu raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi quyidagi maqsadlarini amalga oshirish uchun xizmat qilishi kerak:

- raqamli iqtisodiyotning ekotizimini yaratish;

- mamlakat raqamli iqtisodiyot tizimining institutlari va infratuzilmasini yaratish;

- Respublikaning barcha tarmoqlarini qamrab oluvchi informason jamiyat tashkil qilish uchun kerakli bo'lgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- Global miqyosda va global bozorlarga respublikamizning raqobatbardoshligini oshirish;

Endi global informason tizimda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlar va adabiyotlardan foydalangan xolda bir qancha rivojlangan mamlakatlar misolida raqamli iqtisodiyot

infratuzilmasini shakllantirishning asosiy ko'rsatkichlari va uning o'ziga hos xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz:

Dunyo bo'ylab eng mashhur ijtimoiy media platformasi qaysi?

Bozor yetakchisi Facebook 1 milliard ro'yxatdan o'tgan akkauntni ortda qoldirgan birinchi ijtimoiy tarmoq bo'lib, hozirda har oyda 2,7 milliarddan ortiq faol foydalanuvchida ishlaydi. Ayni paytda kompaniya to'rtta eng yirik ijtimoiy media platformalariga egalik qiladi, ularning har biri 1 milliarddan ortiq faol foydalanuvchilarga ega: Facebook (asosiy platforma), WhatsApp, Facebook Messenger va Instagram. 2020 yilning uchinchi choragida Facebook oyiga 3,2 milliarddan ortiq oilaviy mahsulot foydalanuvchilari haqida xabar berdi.


Eng yuqori darajadagi ijtimoiy platformalar Qo'shma Shtatlar va Xitoyga tegishli 100 milliondan ortiq foydalanuvchisi bo'lgan eng yuqori darajadagi ijtimoiy tarmoqlar Qo'shma Shtatlarda paydo bo'lgan, ammo VK, Yaponiyaning LINE platformasi yoki Xitoyning WeChat, QQ ijtimoiy tarmoqlari yoki Douyinning video almashish dasturi singari Yevropa xizmatlari ham o'z mintaqalarida asosiy murojaatlarni to'plashdi, mahalliy kontekst va tarkib. Douyinning mashhurligi platformaning o'z tarmog'ining xalqaro versiyasini chiqarishga olib keldi: TikTok nomli kichik dastur.

Ijtimoiy tarmoqlardan necha kishi foydalanadi?

Etakchi ijtimoiy tarmoqlar odatda bir nechta tillarda mavjud bo'lib, foydalanuvchilarga do'stlari yoki odamlari bilan geografik, siyosiy yoki iqtisodiy chegaralar orqali bog'lanish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy tarmoqlarning saytlari hozirda 3,6 milliard foydalanuvchiga ega deb taxmin qilinmoqda va bu ko'rsatkichlar hali ham o'sishi kutilmoqda, chunki mobil qurilmalardan foydalanish va mobil ijtimoiy tarmoqlar ilgari kam ta'minlangan bozorlarda tobora ommalashib bormoqda (1.1-rasm).

1.1-rasm. Dunyo bo'ylab eng omabop va faol foydalanuvchilar soni bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar reytingi, 2021 yil yanvar xolatiga ko'ra (millionda)²³.

Raqamli iqtisodiyotning tarqalish tezligi quyidagi raqamlar bilan izohlanadi²⁴:



²³ <https://www.statista.com/statistics/272014/global-social-networks-ranked-by-number-of-users/>

²⁴ <https://ec.europa.eu/eurostat/ststics-explained/>

- internet tarmog‘idan 4 milliarga yaqin odam foydalanadi, ulardan 53 foiz «Mobil Internet»dan (mobil internet) foydalanadi;

- Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Internet foydalanuvchilari quydagilar: 16 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lganlarning 97% va qariyalarning (55 yoshdan 74 yoshgacha bo‘lganlar) 63% internetdan foydalanadi;

- Jahon xo‘jaligida faoliyat olib boruvchi xodimlarning 5.5 foizi AKT bo‘yicha mutaxassislar xisoblanadi. Ularning 1.4 foizi ayollar tashkil etadi;

- ishblarmonlarning 90 foizi internet tarmog‘i bilan bog‘lanishadi, faqatgina 20 foizi ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishadi.

«Google» mutaxassislari 2020 yilning oxiriga borib, dunyoda internetdan foydalanuvchilar soni 5 milliard kishidan oshishini bashorat qilishgan. (1.1-rasm).

«Raqamli-iqtisodiyot» - bu internetdagi iqtisodiy faoliyatning aloqa mo‘hitini, shuningdek, uni amalga oshirishning shakllari, usullari vositalari va natijalarni anglatadi²⁵. Natijalarni tahlil qilganda shunday xulosa qilish mumkinki: raqamli transformatsiya liderlik talablarini tubdan o‘zgartirdi. An‘anaviy rahbarlik yondashuvlari endi yetarli emas; rahbarlar innovatsiyalarni boshqarish, sun‘iy intellekt va ma‘lumotlar tahlilini tushunish, hamda xodimlarni raqamli ko‘nikmalarga o‘rgatish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Shuningdek, xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, samarali raqamli transformatsiya jarayonida rahbarlar:

- ma‘lumotlar asosida qaror qabul qilishni rivojlantiradi;
- yangi texnologiyalarni tezkor joriy etadi;
- xodimlar va jamoa motivatsiyasini oshiradi;
- raqamli xavfsizlik va axborot infratuzilmasini boshqaradi.

Xulosa: Raqamli transformatsiya davrida liderlik kompetensiyalarining yangilanishi tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion jarayonlarni boshqarish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zamonaviy liderlar raqamli texnologiyalarni strategik qarorlar qabul qilishda, jamoani boshqarishda va innovatsion yechimlarni tatbiq etishda samarali foydalanishi zarur. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot rivojlanishida liderlik kompetensiyalarini yangilash milliy strategik ustuvorlik sifatida qabul qilinishi lozim.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son

²⁵ Калужский М. Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход, монография, 2015 год, 388 с

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni www.lex.uz

2. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, №PF-6079, 05.10.2020 y. www.lex.uz

3. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: Iqtisod Moliya, 2019. 396 b. Gulyamov S.S. va boshqalar. Puti povыsheniya intellektualnogo potentsiala dlya innovatsionnogo razvitiya Uzbekistana. Patent №ES-01-001710.

4. Ayupov R.X. va boshqalar. O‘zbekistonda elektron biznesning rivojlanish istiqbollari. -T: Format poligraf, 2016. Xodiev B. Yu. Sifrovaya ekonomika v Uzbekistane. //Mirovaya ekonomika, 2017, №12

5. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. -T: Fan va texnologiya, 2018. Ayupov R.X. va boshqalar. O‘zbekistonda elektron biznesning rivojlanish istiqbollari. -T: "Format poligraf" nashriyoti, 2016, 205 bet.

6. Dadabaeva R.A. Menedjment informatsionnyx sistem. Uchebnoe posobie, -T.: Iqtisodiyot, 2016.

7. Xodiev B.Yu., Musaliev A.A., Begalov B.A, Alimov Q. Menedjment informatsionnyx sistem. -T.: Fan, 2007. G‘ulomov S.S., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika. Darslik. – T.: O‘zbekiston, 2010.

8. Ayupov R.X. va boshqalar. Elektron tijorat asoslari. ipcenter.uz, 2020,

9. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg‘or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.

10. Suyunov D.X., Qodirov T.U., Umarova R.Z. Boshqaruv etikasi va korporativ madaniyat. Darslik: T.: 2025, 475 bet.

11. Suyunov D.X., E.A. Xoshimov, Sh.A. Xusainov Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. 2018. 220 bet.

12. Suyunov D.X., S.E. Elmirzayev Korporativ boshqaruv. Darslik–Toshkent 2022. 450 bet.

13. Suyunov D.X., A.T.Kenjabayev, A.Ro‘ziyev Elektron tijorat. 2023. 450 bet.